

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 25 - oktabr

364-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar va tumanlari hududidagi
Obodonlashtirish boshqarmalarining foydalanishida bo'lgan yo'l yoqasidagi
yerlarni Nukus shahar va tuman Obodonlashtirish boshqarmalariga doimiy
foydalanish huquqi bilan bekitib berish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3 va 20-moddalariga, "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash tug'risida"gi 543-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 10-yanvardagi 4-son qarorining 2-bandiga asos, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi PF-198-son Farmoyshining 9-bandi va O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-mart kuni Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi yakunlari bo'yicha berilgan topshiriqlar bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida hamda Nukus shahri hokimining 2023-yil 12-oktyabrdagi 01-50/01-3086-sonli, Nukus tumani hokimining 2023-yil 12-oktyabrdagi 2569-01-sonli, Kegeyli tumani hokimining 2023-yil 12-oktyabrdagi 01-2018-sonli, Bo'zatov tumani hokimining 2023-yil 12-oktyabrdagi 01-336-sonli, Chimboy tumani hokimining 2023-yil 13-oktyabrdagi 01-92-sonli, Qarao'zak tumani hokimining 2023-yil 13-oktyabrdagi 01-10/1163-sonli, Taxtako'pir tumani hokimining 2023-yil 12-oktyabrdagi 01-10/520-sonli, Mo'ynoq tumani hokimining 2023-yil 11-oktyabrdagi 01/1764-sonli, Qo'ng'iro't tumani hokimining 2023-yil 11-oktyabrdagi 02-4423-sonli, Qonliko'l tumani hokimining 2023-yil 12-oktyabrdagi 01-03/10-10/325-sonli, Sho'manoy tumani hokimining 2023-yil 17-oktyabrdagi 02-02/03-10/2050-sonli, Xo'jayli tumani hokimining 2023-yil 12-oktyabrdagi 5297/01-sonli, Taxiatosh tumani hokimining 2023-yil 11-oktyabrdagi 3602-01-sonli, Amudaryo tumani hokimining 2023-yil 13-oktyabrdagi 01-387-sonli, Beruniy tumani hokimining

2023-yil 10-oktyabrdagi 1925-sonli, Ellikqal'a tumani hokimining 2023-yil 12-oktyabrdagi 01-1662-sonli hamda To'rtko'l tumani hokimining 2023-yil 14-oktyabrdagi 01-10/2215-sonli xatlarini ko'rib chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-mart kuni Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi yakunlari bo'yicha berilgan 15-sonli topshiriqlar bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida Davlat kadastrlar palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasining xududiy filiallari, Nukus shahar va tuman hokimlarining o'rinbosarlari va Obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan Obodonlashtirish boshqarmalarining foydalanishida bo'lgan ammo huquqiy xujjatlarga ega bo'lmagan yo'l yoqasida qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan hamda aholi punktlari ichidagi yerlarni obodonlashtirish maqsadida o'tkazilgan xatlov ishlari hamda Nukus shahar va tuman hokimlarining xatlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar va tumanlari hududidagi Obodonlashtirish boshqarmalarining foydalanishida bo'lgan ammo huquqiy xujjatlarga ega bo'lmagan yo'l yoqasida qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan hamda aholi punktlari ichidagi yerlarni obodonlashtirish maqsadida jami 10938,28 gektar yer maydonlari Nukus shahar va tumanlar Obodonlashtirish boshqarmalariga doimiy foydalanish huquqi bilan qonunchilikda belgilangan tartibda ilovaga muvofiq bekitib berilsin.

3. Nukus shahar va tumanlar obodonlashtirish boshqarmalariga, bekitib berilyotgan yerlarni obodonlashtirish ishlarini samarali yo'lga qo'yish hamda amaldagi qoida va tartiblar asosida bino inshootlariga oid barcha o'tib turgan muhandislik-kommunikatsiyalarga zarar yetkazmaslik, qurilish ishlariga yo'l qo'ymaslik hamda boshqa yerdan foydalanuvchilar huquqlarini buzmaslik choralari ko'rish vazifasi yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlar palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunbyaev) shahar va tuman hokimlari bilan birgalikda doimiy foydalanish huquqi bilan bekitib berilyotgan yer maydonlariga bo'lgan huquqlarni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish choralari ko'rsin.

5. Mazkur qarorning qonunchilikka muvofiq bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 25-oktabrdagi
364-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlari hududidagi yo'l yoqasida
foydalanilmayotgan, aholi punktlari ichidagi umumfoydalanishdagi obodonlashtirish uchun
mo'ljallangan yer maydonlari**

№	Tuman shahar nomi	MFY lar soni	Ob'ektlar soni	Umumfoydalanish erlarining maydoni (gektar)
	Qoraqalpog'iston Respublikasi	451	451	10938,28
1	Nukus shahar	70	70	1182,00
2	Amudaryo tumani	49	49	760,44
3	Beruniy tumani	40	40	1717,44
4	Bo'zatov tumani	5	5	310,28
5	Kegeyli tumani	16	16	738,86
6	Qo'ng'iro't tumani	39	39	559,25
7	Qonliko'l tumani	11	11	323,70
8	Mo'ynoq tumani	12	12	249,95
9	Nukus tumani	13	13	429,83
10	Taxtakopir tumani	17	17	420,94
11	To'rtko'l tumani	49	49	1230,46
12	Xo'jayli tumani	28	28	491,05
13	Chimboy tumani	22	22	589,52
14	Sho'manoy tumani	13	13	273,71
15	Ellikqal'a tumani	40	40	878,75
16	Qorao'zak tumani	13	13	265,00
17	Taxiatosh tumani	14	14	517,10